

ALISHER NAVOIYNING “XAZOYIN UL-MAONIY” (“BADOE’ UL-VASAT” DEVONI) ASARIDA AXLOQIYLIK VA INSON MUAMMOLARI.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715689>

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti
ijtimoiy fanlar kafedrası professor v.b, O‘zbekiston
shaxnozaxon058@gmail.com

ORCID: 0009-0002-8931-1341.

Bobonazarov Usmonali Mustafoyevich

Alfraganus universiteti 2-kurs magistranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xos bosqichi bo‘lgan “Badoe’ ul-vasat” devonidagi axloqiylik va insoniy go‘zallik konsepsiyasi tahlil etiladi. Shoirning axloqiy-estetik qarashlari, go‘zallikni ilohiylik, ruhiy yetuklik va axloqiy mukammallik bilan bog‘lab talqin etishi falsafiy nuqtai nazardan ochib beriladi. Shuningdek, go‘zallikning iztirob va komil inson g‘oyasi bilan uyg‘unligi zamonaviy falsafiy-estetik qarashlar bilan solishtirilib baholanadi.

Kalit so‘zlar: axloqiylik, go‘zallik, estetik tafakkur, ishq, ma‘naviy kamolot, ilohiylik, ichki dunyo, tasavvuf.

KIRISH.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy – so‘z mulkining sultoni, buyuk alloma, shoir va olim, davlat arbobi, go‘zallik va adolat kuyshisi bo‘lib, 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tavallud torgan, 1501-yilda Hirot shahrida vafot etgan. Alisher Navoiy o‘z davrining muhabbat, sevgi, adolat va ma‘rifat kuyshisi sifatida dovrug‘ qozongan. Shoir asarlarida keng xalq ommasining dolzarb muammolarini qo‘rqmasdan qalamiga oladi. Shu bilan birga, uning falsafiy, axloqiy, estetik qarashlari ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy ijodida inson, uning ruhiy olami, axloqiy kamoloti va jamiyatdagi o‘rni haqida chuqur falsafiy mushohadalar yetakchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, “Xazoyin ul-maoniy” majmuasining ikkinchi devoni “Badoe’ ul-vasat”da insonning ichki dunyosi, axloqiy yetukligi, haqiqat va adolat bilan bo‘lgan munosabatlari san’atkorona tarzda aks ettirilgan. Ushbu devonda Navoiy o‘z zamonasi ijtimoiy-hayotiy haqiqatlarini teran kuzatgan holda, insoniy fazilatlar, ma‘naviy kamolot, haqiqatparastlik va tavozega da‘vat etuvchi g‘azallar yaratadi. U fidoyilik, vafodorlik, sabr-qanoat, dunyo havaslaridan voz kechish kabi axloqiy g‘oyalarga chuqur e‘tibor qaratgan.

Bugungi globallashuv va ma‘naviy-intelektual inqiroz davrida axloqiy me‘yorlar va insoniy qadriyatlar tobora zaiflashib bormoqda. Jamiyatda manfaatparastlik, shaxsiy foydani oliy qadriyatga aylantirish, insonni vosita sifatida ko‘rish holatlari kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan, Navoiy asarlaridagi

axloqiy-falsafiy tamoyillarni tahlil qilish nafaqat adabiy, balki falsafiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, "Badoe' ul-vasat" devonidagi inson va uning ma'naviy muammolari zamonaviy falsafa, etika, psixologiya va pedagogika fanlari nuqtai nazaridan fanlararo tadqiqot uchun qulay asos vazifasini o'taydi. Ushbu devon axloqiy ong va ma'naviy komillik yo'lidagi mashaqqatli, ammo ulug'vor sayrning badiiy-falsafiy talqinidir.

METODOLOGIYA

Alisher Navoiy ijodidagi axloqiy-falsafiy g'oyalarni, xususan, "Badoe' ul-vasat" va muayyan g'azallar tahlili orqali zamonaviy ma'naviy, ijtimoiy va pedagogik muhit bilan bog'liq holda o'rganish metodologik asosini belgilaydi. Ushbu maqolada qadimiy badiiy matnlarni hozirgi davr kontekstida tahlil qilish orqali, ularning bugungi jamiyat uchun aktual jihatlarini ochib berishga harakat qilinadi. Maqolaning falsafiy, tarixiy, pedagogik va ijtimoiy kontekstlarni birlashtirgan yondashuvi (fanlararo metodologiya) bu merosning kompleks talqinini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Alisher Navoiy ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar, ayniqsa, uning axloqiy, ma'naviy va madaniy qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlanmalar, o'zining keng ko'lamdorligi bilan ajralib turadi. Navoiy asarlari nafaqat adabiy-badiiy, balki falsafiy-didaktik meros sifatida ham keng tahlil etilgan. Mazkur maqola "Xazoyin ul-maoniy" asari va "Badoe' ul-vasat" devonida aks etgan g'oyaviy qatlamni falsafiy tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ilgari olib borilgan adabiy va falsafiy ishlanmalarga tayanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asarining "Badoe' ul-vasat" devonida aks etgan axloqiylik, ma'naviy kamolot, inson tabiatiga oid qarashlar tizimli xususiyatga ega. Alloma o'z davrining ijtimoiy-madaniy muammolariga befarq bo'lmagan holda, badiiy-estetik vositalar orqali jamiyatda axloqiy uyg'onish va ma'naviy yuksalishni targ'ib qilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiyning g'azal va ruboiylarida insoniy fazilatlar, poklik, sabr-toqat, fidoyilik, muhabbat va komillikka intilish asosiy g'oyaviy qatlamni tashkil etadi. Ayniqsa, u tomonidan keltirilgan obrazlar orqali insonning ichki ziddiyatlari, iroda kuchi, ruhiy poklanish va muhabbat orqali o'zini anglash jarayoni chuqur badiiy ifoda topgan.

Zamonaviy ijtimoiy sharoitda, axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi va ma'naviy inqiroz holatlari fonida, Navoiyning ushbu qarashlari yoshlar tarbiyasida, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda, shuningdek, estetik tarbiya jarayonlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Quyida ushbu g'oyaviy-estetik tamoyillarning tarixiy, falsafiy va zamonaviy kontekstda qanday namoyon bo'lishi yuzasidan muhokamalar olib boriladi.

"Do'stdinki, dushman xo'yi bo'lg'ay, dushman yaxshiroqdurki, do'st ro'yi bo'lg'ay". (*Do'stdan chiqqan dushman – do'st niqobidagi dushman bo'lsa, ochiq dushman undan yaxshiroqdir.*)

Nihoniy igna sanchar yorlardin
Aduvvash novakafganlar ko'p ortuq.
Munofiq sheva zolim do'stlardin
Muxolif tab' dushmanlar ko'p ortuq. [1.372-b]

Navoiy tomonidan yozilgan ushbu misralar chuqur ma'naviy va axloqiy mazmunga ega bo'lib, do'stlik va dushmanlik haqida o'tkir, hayotiy haqiqatlarni ifodalaydi. Bu misrada agar kishi senga do'stlik niqobi ostida yaqinlashib, aslida dushmanlik qilsa, u ochiq dushmandan ham xavflidir. Chunki ochiq dushmanning niyati ayon, undan ehtiyot bo'lasan. Ammo do'st niqobidagi dushman xiyonatkor, ikkiyuzlamachidir va zararini oldindan sezish qiyin, deb ta'kidlaydi. Alloma asarida ideal va idealga intilish juda kuchli tasvirlanadi. "Xo'sh, idealga intilish degani nima o'zi? Menimsha, bu – idealning xislatlarini o'zida singdira borish, o'zida kashf etish, raydo qilish, shakllantirish deganidir". [2.424-b.] Bu qanday ma'noni bildiradi? Javob shuki, alloma har qanday salbiy va ijobiy jihatlarni ta'riflashidan qat'iy nazar axloqiy-estetik idealni e'tirof etadi.

"Nihoniy igna sanchar yorlardin, Aduvvash novakafganlar ko'p ortuq". (*Yashirincha igna sanchuvchi sevgililardan, ochiqdan-ochiq tosh otgan dushmanlar afzaldir.*) Bu yerda "igna sanchar" iborasi ramziy ma'noda ishlatilgan bo'lib, yashirin xiyonat, qoralovchi so'z, qalbga zarba yetkazuvchi do'st yoki yor demakdir. Navoiy bunday yashirin zarar yetkazuvchilardan ochiq dushman "aduvvash" ni afzal ko'radi, chunki ochiq adovat ko'rinadi, lekin yashirin dushman qalbni tiladi.

Navbatdagi, "Munofiq sheva zolim do'stlardin, Muxolif tab' dushmanlar ko'p ortuq". (*Munofiqlarcha so'zlaydigan zolim do'stdansa, qarama-qarshi tabiatli ochiq dushman afzaldir.*) Bu baytda esa, "munofiq sheva" ikkiyuzlama, yolg'onchi, hiylakor nutqni anglatadi. Navoiy bu xilda so'zlovchi zolim "do'st"dan (aslida do'st emas) ko'ra, ochiqchasiga sen bilan kelisha olmaydigan, fikri qarama-qarshi bo'lgan, ammo niyati ayon dushmanni ustun qo'yadi. Bu dushman senga qarshi bo'lsa-da, ikkiyuzlamachi emas. Bu misralarda Alisher Navoiy chin do'stlikning mohiyatini ochib beradi. Unga ko'ra, do'stlik halollik, sadoqat va rostgo'ylikni talab qiladi. Yolg'on, xiyonat, ikkiyuzlamachilik bilan yaqinlik qilganlar eng xavfli "do'stlar"dir. Shuning uchun Navoiy ochiq dushmanlarni ularning oldida afzal deb biladi. Bu fikrlar bugungi kunda ham ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarda juda dolzarb ahamiyatga ega deb bilamiz.

"Kishi ham ermas emish ishq sirrig'a mahram,
Taxayyulig'a ko'ngul ham, hadisig'a til ham.
Nasime g'uncha ichidin chu yoydi gul atrin,
Dimog'larg'a etardin ne chora, ey hamdam.
YOshurdi odam agar tengri sirrini, ko'runguz
Ki, xalq sirrini tutmas nihon bani odam.
Taashshuqum so'zini, ey rafiq, ko'p so'rma
Ki, bu fasonaning avlodur o'lmag'i mubham." [1.217-b.]

Ushbu g'azal baytlari Alisher Navoiyga xos bo'lgan chuqur falsafiy-estetik tafakkurni aks ettiradi.

Baytda ishq (ilohiy va haqiqatga yo'nalgan sevgi) sirlariga har bir odam yetisha olmasligini aytmoqda. Bu haqiqatga faqat qalb pokligi, ma'naviy yuksaklik va ichki tayyorgarlik bilan erishish mumkin. Oddiy tasavvur (taxayyul), aql yoki so'z (til) bunday ilohiy tuyg'uning mohiyatini to'la anglay olmaydi. Bu fikr G'arb falsafasidagi transsendental haqiqatga yaqin, ya'ni aql bilan emas, faqat ruhiy kamolot orqali anglanadigan sir.

Uchinchi va to'rtinchi misralarida ishqning asli ichki qalb dunyosida yashiringan go'zallik kabi deydi. G'unchadan taralgan gul hidi kabi, bu tuyg'u ham qalb ichidan taraladi va uni tashqi aql yoki sezgi bilan to'liq anglash imkonsiz. Mazkur holat inson tabiatining ikki qirrali moddiy va ma'naviy tabiatini aks ettiradi. Navoiy, Platonga o'xshab, ichki go'zallikni tashqi sezgidan ustun qo'yadi.

Beshinchi va oltinchi baytlarida inson va ilohiy sir orasidagi murakkab aloqaga e'tibor qaratiladi. Garchi Tangri odamzotga sirlarini oshkor qilmasa-da, inson o'zining eng oddiy sirlarini ham yashira olmaydi. Bu bayt ontologik va axloqiy ma'noda insonning o'jizligi, komillikka intilishi va uni to'suvchi ichki kamchiliklar haqida mulohaza yuritadi. Bu fikr hazrati Navoiyda kamolot sari ruhiy sayr zarurligini ko'rsatadi.

Yettinchi va sakkizinchi misralarida ishq sirlari haqida ko'p savol berishning hojati yo'q, deydi Navoiy. Bu yo'l, ya'ni ishq va kamolot yo'li o'zgaruvchan, sirli va har bir kishi uchun o'zgacha yo'ldir. "Fasona avlodi" ya'ni go'yo afsona yoki hayratli haqiqatlar ketma-ketligidir. Bu yerda sufiyona falsafa mujassam bo'lib, Haq yo'lida yurish ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib anglash mumkin bo'lgan haqiqat emas, balki qalb va ruh orqali kechiniladigan borliqdir.

Demak, g'azaldagi barcha misralar Navoiy tafakkurida markaziy o'rin tutgan ishq falsafasi, inson tabiatining ikkiyuzlamaligi, qalbning ruhiy poklanish yo'li kabi tushunchalarni aks ettiradi. U orqali Navoiy insonni o'zini anglash, ichki dunyosiga nazar tashlash va komillikka intilishga chorlaydi.

Alisher Navoiy ko'plab g'azallarida chuqur falsafiy va tasavvufiy ruhda inson ichki olami, ruhiy iztirob, ma'naviy poklanish va jasorat bilan azobni yengish g'oyalarini tasvirlaydi. Quyidagi g'azal misrasiga etibor beramiz:

"Ne g'am, ko'rguzsa ko'ksun yorasin choki giribonim,

Ko'runmas bo'lsa ko'nglum yorasidin dog'i pinhonim." [1.213-b.]

Bu misrada shoir tashqi azob-u ranjdan qo'rqmasligini bildiradi. Ko'kragim yorilsin, biroq ichimdagi yashirin dog' ko'rinmasa bo'ldi, degan fikr mavjud. Falsafiy jihatdan botin (ichki dunyo) va zohir (tashqi ko'rinish) o'rtasidagi ziddiyat ifodalanmoqda. Bu yerda insonning ko'ngil yarasi, ya'ni ruhiy iztirobi har qanday jismoniy azobdan ustun qo'yiladi. Bu esa ichki sabr, iroda va ruhiy kuchning yuksak qadriyat ekanini anglatadi. Navoiy tafakkurida ichki og'riq, ruhiy iztirob, tavozi, faqr, sabr va iroda kabi tushunchalarning qanday chuqur ildiz otganini

ko'rsatadi. Shoir azob va qiynoqlardan shikoyat qilmaydi, balki ularni ma'naviy kamolot sari yo'l deb qabul qiladi.

Inson esa yaratilganlar ishida eng buyuk va aziz ne'matdir. Insonni buyuk va go'zalligini ulug'lab "g'aroyib", "aziz", "gavhar", "oliy sifat", "sharif", "gul" deya ta'riflab, unga berilgan aql-u tafakkuri, til va nutqini Xudo yaratgan mavjudotlar ishidagi "buyuk imtiyoz"i deb baholaydi. [4.177-b.] Shu ma'noda aytish mumkinki, go'zallik alloma asarlarining sirli jozibasini aks etadi.

Alisher Navoiy g'azallari o'zining chuqur ma'no qatlamlari, insoniy kechinmalarni keng qamrovi bilan o'quvchini o'ziga rom etadi. Shoir g'azallarida mahbubga intilish, unga bo'lgan muhabbat va sadoqat teran his-tuyg'ular vositasida ifoda etiladi. Ba'zan mahbubning bepisandligi shoir qalbini ezsa-da, u yoru muhabbatini eslaganda yuragi entikadi, o'zini unutadi, hissiyotlar chigalida yashaydi. Biroq sog'inchi va dard uni bu dunyodan uzib qo'ymaydi, aksincha, ichki kechinmalar uni o'zini va borliqni chuqurroq anglashga undaydi. Shu yo'l bilan u go'zallikni yanada teranroq his qiladi, uni nafis va ma'nodor qiyofada tasvirlaydi.

Umuman tahlillar shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiyning "*Badoe' ul-vasat*" devoni uning "Xazoyin ul-maoniyy" to'rtlik devonlaridan ikkinchisi bo'lib, unda shoirning o'rta yosh davriga xos tafakkur qatlamlari, badiiy mahoratining yuksalgan bosqichi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan shu devonda go'zallik masalasi nihoyatda nozik, falsafiy va axloqiy nuqtai nazardan talqin etiladi. Mutafakkir uchun chinakam go'zallik jismoniy, ruhiy va ma'naviy uyg'unlik (garmoniya) holatidir. Mahbubning jamoli shunchaki tashqi chiroy emas, balki Yaratganning tajallosi sifatida tushuniladi. [5.288-b.] Shoir go'zallikni Allohning kamolotidan aks etgan ziyo deb ko'radi, "*Jamoling husni erur bir lahza bo'lsa, anjum*

osmon, Bu bo'lsa, ko'rmas erdi hech kim aflok aylagan boshin." Go'zallik ishqni uyg'otuvchi sababdir. Uning tasvirida go'zallik oddiy holat emas, balki ishqiy sarguzashtlarning boshlanishi, qalbni junbushga keltiruvchi qudratdir. Go'zallikka oshuftalik ruhiy uyg'onishning belgisidir. Go'zallikni insonni o'z "men"ini topishga, qalb ko'zgusini tozalashga, komil inson bo'lish sari yetaklovchi vosita sifatida talqin qiladi. Go'zal chehra, go'zal xulq, go'zal so'zlarning barchasi Navoiy uchun yaxlit bir ma'naviy kamolot tizimini tashkil etadi. Aynan mana shu "go'zal yuz" va "go'zal chehra" borasida ko'plab manbalarda juda qiziqarli va bahsli mulohazalar berilganligini ham aytib o'tish lozim. [6.200-c.] Navoiy ba'zi she'rlarida go'zallik azob, hijron, hasrat keltiruvchi sabab sifatida talqin qilinadi. Bu yerda shoir go'zallikni ikki qirrali ya'ni, zavq va dard manbai sifatida ko'rsatadi. Shoirning nazarida, go'zallik ko'rinar-ko'rinmas sirli haqiqat bo'lib, u qalbda iztirob uyg'otadi, lekin bu iztirobning o'zi ruhiy poklanishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy o'zining "*Badoe' ul-vasat*" devonida inson axloqi, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy kamolot masalalarini chuqur falsafiy va badiiy jihatdan ifodalagan. Bu devondagi g'azallar va boshqa she'riy shakllar nafaqat estetik didni tarbiyalaydi, balki insonning ichki dunyosini, axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda

muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy uchun axloq faqatgina xulq masalasi emas, balki butun jamiyat taraqqiyotining negizi hisoblanadi.

Bugungi davrda insoniyat duch kelayotgan axloqiy inqiroz, manfaatparastlik, ma'naviy beqarorlik va individualizm kuchayib borayotgan bir paytda Navoiy merosini yangicha talqin etish zarurati tobora ortmoqda. "Badoe' ul-vasat"dagi axloqiy pand-nasihatlari, komil inson timsoli va halollik, sabr, mehr-oqibat, vafodorlik kabi qadriyatlar zamonaviy shaxs tarbiyasida asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, yosh avlodning ruhiy-axloqiy kamolotida bu asardagi g'oyalar qimmatli manba sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Alisher Navoiy devonidagi axloqiy qarashlarni hozirgi global muammolar axborot xuruji, madaniyatsizlik, ijtimoiy befarqlik va ma'naviy bo'shliq sharoitida tahlil qilish, ularni yangi avlod ongiga uyg'un tarzda yetkazish bugungi ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi. "Badoe' ul-vasat" bizni bugun ham insoniylik, samimiyat va axloqiy yuksaklik sari chorlaydi.

Alisher Navoiyning "Badoe' ul-vasat" devonida ilgari surilgan axloqiylik va insoniy go'zalliklar masalasi, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy kontekstida yuksak badiiy va falsafiy mazmun bilan boyitilgan. XV asrda Movarounnahr va Xuroson hududida siyosiy kurashlar, din va dunyoqarashlar to'qnashuvi, hamda ijtimoiy ziddiyatlar avj olgan bir davrda Navoiy axloqiy qadriyatlar orqali jamiyat barqarorligini ta'minlash g'oyasini ilgari suradi. Shoir ijodida "komil inson" timsoli asosiy g'oyaviy markazga aylangan bo'lib, bu timsol o'z zamonasi uchun ideal shaxs modelini ifodalaydi, ya'ni adolatli, sabrli, pokiza, ma'naviy jihatdan yuksak va xalq xizmatiga bel bog'lagan shaxs. [7.30-b.]

Yuqoridagi tarixiy kontekst bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki har qanday jamiyatning taraqqiyoti, eng avvalo, insoniy go'zal fazilatlar va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Shu sababli "Badoe' ul-vasat"da ilgari surilgan g'oyalar zamonaviy axloqiy-ma'naviy tarbiyada ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiyning "Badoe' ul-vasat" asari bilan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari o'rtasida bir nechta mazmuniy, axloqiy-falsafiy hamda estetik bog'liqliklar mavjud. Biz uni maqolada kam mulohazalarda ko'rib o'tgan bo'lsak-da, u bo'yicha kelajakda yirik tadqiqot ishlari olib borish mumkin. Ammo quyidagi kesishmalarini aytib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchidan, axloqiy idealga intilish, ya'ni "Qutadg'u bilig"da adolatli hukmdor, donolik, qanoat, toza niyat, foydali ilm asosiy qadriyatlar sifatida targ'ib qilinadi. [3.200-b.] "Badoe' ul-vasat"da ham axloqiy yetuklik, ruhiy poklik, komil inson bo'lish, xudbinlikdan yiroq ishq kabi yuksak tushunchalar qalb va ma'naviyat orqali ifodalanadi. Har ikki asarda ham markazda inson, insonning komillik sari yo'li asosiy mavzu sifatida ilgari surilgan bo'lib, o'z davrining adabiy-estetik yodgorligi hisoblanadi. Mazkur asarlar turli davrlarda yaratilgan bo'lsa-da, insonning komillikka intilishi, axloqiy o'zini tarbiyalashi, jamiyatdagi o'rnini anglash va uni to'g'ri belgilash borasida bir-biriga ideologik va ma'naviy jihatdan yaqin asarlardir. Ularda aks etgan g'oyalar zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun ham muhim nazariy asos bo'la oladi.

XULOSA.

Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonidagi axloqiylik va inson muammolari bugungi zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog‘liq holda yangicha talqinda o‘rganilishga muhtoj. Bugungi kunda individualizm, ma’naviyatsizlik, iste’molchilik kayfiyati, ijtimoiy befarqlik, virtual dunyoga haddan ortiq bog‘lanish kabi muammolar jamiyatni chuqur o‘ylantirmoqda. Aynan shunday vaziyatda Navoiy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar insoniy poklik, sabr-qanoat, ijtimoiy mas’uliyat, mehr-oqibat, ichki uyg‘unlik kabi qadriyatlar muhim yechim sifatida o‘rtaga chiqadi. “Badoe’ ul-vasat”da insonning ruhiy-ma’naviy dunyosi, ichki ziddiyatlari, axloqiy tanlovlari bevosita badiiy-falsafiy uslubda tasvirlangan. Bu orqali Navoiy insonni nafaqat ijtimoiy mavjudot sifatida, balki axloqiy-ruhiy muvozanatga erishishga intiluvchi ongli zot sifatida tasvirlaydi. Bugungi kun jamiyatida esa aynan shu muvozanat ya’ni moddiy va ma’naviy qadriyatlar orasidagi uyg‘unlik yetishmayapti.

ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. (Бадоеъ ул-васат). – 372 б. www.ziyouz.com кутубхонаси. – 381 б.
2. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr, O‘zbekiston, 2009. – 424 б.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (“Saodatga eltuvchi bilim”) / (Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi B.To‘xliyev). – Toshkent.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 200 b.
4. Tursunkulova Sh.T. Tasavvuf falsafasida go‘zallik paradigmasining immanent va tizimli asoslari. Fals. fan. doktori (DSs) ...dis. aftoref. – Samarqand: 2023.
5. Tursunkulova, Shaxnoza Tuychiyevna (2024). TASAVVUF FALSAFASINING KO‘RMA’NOLI MOHIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (26), 288-292.
6. Чернишевский Н.Г. Сочинения. В 2 т. Т.1. – М.: Мысль, 1986.
7. Эгамбердиева Н.М. Алишер Навоий бадий-эстетик меросининг ёшлар дунёқарашини юксалтиришдаги аҳамияти. Фалс.фан.бўй.фалс.доктори (PhD) ... дис.автореф. – Самарқанд: 2022. – Б.51.